

Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibi

Sa’dullayev Baxromjon Islomboy o‘g‘li

Toshkent viloyati yuridik texnikum o‘quvchisi

Annotatsiya: Maqolada normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish haqida bayon qilingan

Kalit so‘zlar: cheklist, ishlab chiquvchi, ilmiy ekspert, mustaqil ekspert

Korrupsiyaga qarshi ekspertiza — normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash, aniqlangan korrupsiyaviy omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko‘rishga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar majmui; korrupsiyaviy omil — korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyani yuzaga keltiradigan huquqiy normalar; cheklist — normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarida korrupsiyaviy omillarni aniqlash bo‘yicha namunaviy shakldagi savolnoma; ishlab chiquvchi — normativ-huquqiy hujjat loyihasini (bundan buyon matnda loyiha deb yuritiladi) ishlab chiqishni amalga oshiruvchi davlat organi va tashkiloti; ilmiy ekspert — ilmiy tashkilot yoki oliy ta‘lim muassasasining Qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha ekspertlar reestriga kiritilgan vakili; mustaqil ekspert — Qonunchilik hujjatlari va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha ekspertlar reestriga kiritilgan jismoniy shaxs; adliya organlari — O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar adliya boshqarmalari, tuman (shahar) adliya bo‘limlari.

Korrupsiyaga qarshi ekspertiza korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etish imkoniyatini yaratadigan, korrupsiyani yuzaga keltiradigan omillarni

aniqlash, loyihani qabul qilishning korrupsiya holatlari uchun imkoniyat yaratadigan oqibatlarini umumiy tarzda baholash, normativ-huquqiy hujjatlarni qo'llash jarayonida korrupsiya xususiyatiga ega tavakkalchiliklarning yuzaga kelish ehtimolini prognoz qilish, aniqlangan korrupsiyani yuzaga keltiruvchi omillarni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish va choralar ko'rish maqsadida amalga oshiriladi.

Quyidagilar korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazishning asosiy tamoyillari hisoblanadi: qonuniylik — korrupsiyaga qarshi ekspertiza O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, «Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida»gi, «Korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risida»gi qonunlari, ushbu Nizom va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshirilishi; to'liq qamrab olinganlik — barcha loyihalar majburiy tartibda korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazilishi; ochiqlik va shaffoflik — korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazish jarayonlarida jamoatchilikning ishtiroki ta'minlanishi; xolislik — korrupsiyaga qarshi ekspertiza xolis va beg'araz, qat'iy qonuniy, nazariy va amaliy asosda, tegishli mutaxassislik doirasida, har taraflama va to'liq hajmda o'tkazilishi; mustaqillik — korrupsiyaga qarshi ekspertiza mustaqil shaxs tomonidan o'tkazilishi, manfaatdor shaxslar foydasiga xulosa olish maqsadida korrupsiyaga qarshi ekspertizani o'tkazuvchi shaxsga ta'sir o'tkazishga yo'l qo'yilmasligi; asoslanganlik — korrupsiyaga qarshi ekspertiza natijalarining asoslanganligi, xolisligi va tekshirilishi imkoni mavjudligi; korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarning ustuvorligi — korrupsiyaviy omillar aniqlangan taqdirda, majburiy ravishda ularni bartaraf etishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqilishi va choralar ko'rilishi.

Quyidagilar korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazish uchun asosiy axborot manbalari hisoblanadi: normativ-huquqiy hujjatlar; xalqaro shartnomalar; sud amaliyoti; rasmiy statistik ma'lumotlar va hisobotlar; davlat organlari va tashkilotlarining ma'lumotlari; ilmiy-tahliliy materiallar va nashrlar, ilmiy-amaliy seminarlar, konferensiyalar hamda yig'ilishlar materiallari; vakolatli tashkilotlar va ishlab chiquvchi tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy so'rovlarning natijalari;

ommaviy axborot vositalarida, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytlarda e'lon qilingan nashrlar; korrupsiyaga qarshi ekspertiza o'tkazish doirasida davlat organi va tashkiloti tomonidan o'tkazilgan o'rganishlar, shu jumladan bevosita joyiga chiqqan holda o'tkazilgan o'rganishlar jarayonida olingan (aniqlangan) ma'lumotlar.

Quyidagilar normalarning barqarorligi va huquqiy muvofiqligi bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar hisoblanadi: so'zlarning noto'g'ri qo'llanilishi; noaniq va asossiz havolalar keltirilganligi; normativ-huquqiy hujjatlar o'rtasida ziddiyatlarning mavjudligi.

Quyidagilar vakolatlar, huquq va majburiyatlar bilan bog'liq bo'lgan korrupsiyaviy omillar hisoblanadi: diskresion vakolatlarning kengligi; aniq belgilanmagan vakolatlar; davlat organlarining takrorlovchi vakolatlari va vazifalarning mavjudligi; davlat organi tomonidan o'zining vakolatiga kirmaydigan masalalar bo'yicha normativ-huquqiy hujjat qabul qilinishi; vazifa yoki topshiriqni bajarish uchun ijrochida yetarli vakolatlar va resurslarning mavjud emasligi; kechiktirib tartibga solish; manfaatlar to'qnashuvi; afzalliklarning asossiz belgilanishi; normativ-huquqiy hujjatning kuchga kirishini asossiz ravishda kechiktirish; huquq va majburiyatlar o'rtasidagi nomutanosibliklar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasining Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida (20.04.2021, O'RQ-682-son) Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 22 oktabrdagi Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-5263-sonli qarori

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli farmoni

5. . O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2021 yil 22 fevraldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 2-mh-son buyrug‘i (2021 yil 24 fevralda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3287)

6. O‘zbekiston Respublikasi adliya vazirining 2022 yil 27 yanvardagi “Normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi 1-mh-son buyrug‘i (2022 yil 27 yanvarda ro‘yxatdan o‘tkazilgan, ro‘yxat raqami 3287-1).